

KREATIV DIZAYN FANINI O'QITISHDA SWOT-TAHLIL USULINI QO'LLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12500838>

Raximov SH.I

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kreativ dizayn fanini o'qitish bo'yicha swot-tahlil usulini qo'llash samaradorligi ko'rib chiqilgan. Shuningdek ushbu usulning ahamiyati, uni qo'llashning ustunlik va kamchiliklari keltirilgan.

Kalit so'zlar

Media, dizayn, kreativ dizayn, swot-tahlil usuli

TEACHING CREATIVE DESIGN OBJECT USING THE SWOT- ANALYSIS METHOD

Rakhimov SH.I

*Senior lecturer at the University of Journalism and Mass Communications of
Uzbekistan*

Annotation

This article examines the effectiveness of using the SWOT analysis method for teaching creative design. The importance of this method, advantages and disadvantages of its use are also presented.

Key words

Media, design, creative design, SWOT analysis method

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va darslarning samaradorligini oshirish uchun bir qancha ta'lim metodlari ishlab chiqilgan. Ta'lim metodlari – bu o'qituvchilar tomonidan talabalarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashda qo'llaniladigan turli usullar va yondashuvlardir. Ushbu metodlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, o'quvchilarning o'rganish motivatsiyasini oshirishga va ularning muvaffaqiyatli bilim olishlarini ta'minlashga yordam beradi.

SWOT tahlil usuli - XX asrning oxiri - XXI asr boshlari ilm-fanda keng foydalanila boshlandi. Uning tashqi ko'rinishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda o'zgacha yondashuv bilan bog'liq.


SWOT bu ushbu metodda ko'rib chiqiladigan tahlillarning ingliz tilidagi bosh harflaridan kelib chiqqan. Ya'ni kuchli tomonlari, kamchiliklari, afzalliklari va tahlil qilinayotgan masalaga uchrashi mumkin bo'lgan to'siqlar nazarda tutiladi. Uning rivojlanishining hozirgi bosqichida SWOT-tahlil usul sifatida juda yaxshi ishlab chiqilgan va ko'plab tadqiqotchilarning asarlarida taqdim etilgan. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs -munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, yoki o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikirlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o'rgatadi.

SWOT tahlili mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalarni o'rganishga va tuzishga qaratilgan, o'rganilayotgan ob'ektning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va cheklovlari haqida ma'lumot to'plash, tahlil qilish va baholashga asoslangan bilimlarni norasmiy tizimlashtirishga qaratilgan bir usuldir. SWOT tahlillari boshqaruv tadqiqot vositasi sifatida, shuningdek, loyihalar va strategiyalarni asoslash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tizimli iqtisodiy bilimlarni talab qiladi.

SWOT-tahlil usuli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1) obyektlarning kuchli tomonlari va zaif tomonlarini (V) identifikatsiya qilish, obyektning imkoniyatlari (O) va tahdidlari (cheklashlar) (T);

2) rejimlarni kesishidan kelib chiqadigan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha takliflar: kuchli tomonlar - imkoniyatlar (S-O); kuchli - tahdidlar (ST); zaif tomonlar - imkoniyatlar (W-O); zaifliklar - tahdidlar (W-T).



1-rasm. SWOT-tahlil usuli grafik ko'rinishi

Kreativ dizayn fanining seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda swot-tahlil usulini qo'llash darsning an'anaviy olib borilishidan farqli ravishda o'rganilayotgan tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. O'tkazilgan mashg'ulotlar davomida o'rganilgan mavzularni tahlil qilish uchun guruxlarga bo'lingan holda SWOT-tahlilni amalga oshirish samaraliroq ekanligi aniqlandi. Guruxlar to'rt nafardan talabalardan iborat bo'lgan holda, berilgan vazifalar bo'yicha o'z tahlillarini amalga oshirishadi va yakuniy xulosaga kelishadi. Gurux bo'lib ishlagan holda talabalar o'zaro fikr almashgan holda bilimlarini takomillashtirishga ham erishiladi.

O'z navbatida bu usulning kamchiliklari ham borligini ta'kidlab o'tish lozim. Mashg'ulotlar paytida ushbu usulning natijalari subyektiv ekanligi aniqlandi. Bundan ma'lum bo'ladiki, tahlil natijasida erishilgan natijalar va xulosalar har doim ham aniq va to'g'ri fikrlarni yuzaga chiqarmaydi. Fikrlar qatnashuvchilarning bilim malakasi va dunyoqarashlari orqali yuzaga chiqadigan natijalar hisoblanadi.

Namuna: Mediada maxsus effektlarni qo'llashning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Mediada maxsus effektlarni qo'llashning kuchli tomonlari	Doimiy tomoshabinlarni o'ziga jalb qiladi, naviy texnologik talablarga mos tushadi, im bir smaydon yoki hudud talab etilmaydi...
W	Mediada maxsus effektlarni qo'llashning zaif tomonlari	Vaqtdan yutqaziladi, harajatlarni ko'paytiradi, imcha resurslar talab etiladi...

O	Mediada maxsus effektlarni qo'llashning imkoniyatlari	Ishlab chiqarishda samarali, real holatda oshirib bo'lmaydigan tasvirlarni o'zlashtirish mumkin...
T	Mediada maxsus effektlarni qo'llashning imkoniyatlari (tashqi)	Malakali kadrlarning yetishmasligi, moddiy va ma'naviy bazaning yetishmasligi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*.
2. Wiske, M. S. (1998). *Teaching for Understanding: Linking Research with Practice*.
3. National Research Council. (2000). *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School*.
4. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*.
5. Marzano, R. J. (2007). *The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction*.